

Oqsaroyda qabul



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 6-noyabr kuni Oqsaroyda Xalqaro investitsiyaviy forumda ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Jahon bankining Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha vitse-prezidenti Siril Myuller hamda Jahon banki guruhiga kiruvchi Xalqaro moliya korporatsiyasining vitse-prezidenti Dimitris Sitsiragosni qabul qildi.

Davlatimiz rahbari mehmonlarni yurtimizga tashrifi bilan qutlab, O'zbekiston Jahon banki guruhi bilan hamkorlikni yuksak qadrlashini ta'kidladi.

O'zbekiston bilan Jahon banki o'rtasida samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Buning natijasida umumiy qiymati 6 milliard dollardan ziyod bo'lgan 28 qo'shma loyiha amalga oshirildi. Buloyihalar elektr energetikasi, irrigatsiya va kommunal tarmoqlarini modernizatsiyalash, suv ta'minoti, ishlab chiqarish, transport va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish kabi yo'nalishlarni qamrab olgan. Ushbu loyihalarni moliyalashtirishda Jahon bankining ulushi 2,6 milliard dollarni tashkil etdi.

O'zbekiston va Jahon banki o'rtasidagi sheriklik munosabatlarida sog'liqni saqlash sohasidagi hamkorlik alohida o'rintutadi. Uning doirasida Jahon banki 300 million dollardan ortiq miqdordagi uzoq muddatli imtiyozli kredit bilan 4 loyihani amalga oshirishni qo'llab-quvvatladi.

Mamlakatimizda Xalqaro moliya korporatsiyasining 135 million dollar miqdoridagi investitsiyasi ishtirokidagi xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha 20 loyiha amalga oshirildi.



Suhbat davomida Jahon banki guruhi vakillari O'zbekistonda 2015-2019-yillarda iqtisodiyotni yanada isloh qilish, tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiyalash bo'yicha joriy yilda qabul qilingan strategik dasturlarning ahamiyatini alohida qayd etdi. Bu dasturlarda iqtisodiy islohotlarni davom ettirish va chuqurlashtirish, sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, xususiyl mulkchilik va xususiyl tadbirkorlikni rivojlantirish, shuningdek, davlatning iqtisodiyotdagi roli va o'rnini kamaytirish ko'zda tutilgan.

Mehmonlar Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi O'zbekiston iqtisodiyotini tubdan tarkibiy o'zgartirish jarayonida faol ishtirok etishdan manfaatdor ekanini ta'kidladi. Shuningdek, asosiy sohalar bo'yicha qabul qilingan dasturlar va qo'shma investitsiyaviy loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlashini bildirdi.

Hozir Jahon banki 2016-2020-yillarga mo'ljallangan sheriklik strategiyasini tayyorlashni yakunlamoqda. Uning doirasida qiymati 4 milliard dollardan ziyod bo'lgan 30 dan ortiq loyihani amalga oshirish ko'zda tutilgan. Bu yangi loyihalar elektr energetikasi, neft-gaz sanoati, transport, sog'liq nisaqlash, ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kommunal infratuzilmava boshqa sohalarini yanada rivojlantirishga qaratilgan.

Xalqaro moliya korporatsiyasi bilan neft-kimyo, kimyo sanoati, muqobil energiya manbalari va moliya sohalarida istiqbolliloyihalar ishlab chiqilmoqda.

Uchrashuvda o'zaro hamkorlikning ustuvorsohalari yuzasidan fikr almashildi, sheriklik munosabatlarini yanadarivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbolli yangi loyihalarni ishlabchiqish masalalari muhokama qilindi.

[UZA](#)